



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-mart)



Das`tlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahar korxonalarini tomonidan 15,9 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 110,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (67,9 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 10,5 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 21,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 1,0 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,5 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,7 % ni tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal qazib olish 9,3 marta, chaqiq tosh qazib olish 6,0 marta, neft qazib olish 2,3 marta, oshgan boʻlsa, tabiiy gaz 30,5 % ga, gazli kondensat 6,7 %, ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar - mart	2021-yil yanvar - mart	Farqi +/-
Neft, ming t.	71,7	162,6	90,9
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	154 830,5	107 678,3	-47 152,2
Gaz kondensati, ming t.	199,0	185,7	-13,3
Chaqiq tosh, ming t.	12,1	72,4	60,3
Shag'al , ming t.	1,2	11,2	10,0


Ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,7 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 35,9 % ni tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 8,7 % ni (2020-yilning yanvar –mart oylarida 5,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali 11,9 % (13,8 %), o'rta-quyi texnologiyali 21,1 % (19,9 %) va quyi texnologiyali 26,3 % (27,1 %) ni tashkil etdi.


**2020-yil
yanvar - mart % da**



**2021-yil
yanvar - mart % da**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 22,6 % (2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi 8,3 % (2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 145,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 7,2 % (2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,5 % (2020-yilning yanvar –mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % (2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati






2021-yilning yanvar-mart oylariga ishlab chiqaradigan sanoatda 82,6 mln. dona butilka (2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 11,9 % ga o'sgan), 482,6 ming litr uzum vinosi (26,8 %), 687,4 mln. dona tamaki mahsuloti (2,2 marta), 6 436,4 ming litr aroq 100 % spirt (38,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-mart	2021-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	70 050,0	63 594,0	-6 456,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	803,0	631,6	-171,4
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	4 895,8	2 714,2	-2 181,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	9,7	8,4	-1,3
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	95 100,0	120 839,0	25 739,0



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,5 % ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 89,5 % ga oshganligi kuzatildi.







Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil Yanvar-mart	2021-yil Yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	100,5	99,0	-1,5
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	5 358,7	5 579,2	220,5
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm.</i>	393 366,0	211 913,0	-181 453,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-mart	2021-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	20,3	20,1	-0,2
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	111,3	124,9	13,6
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	43,7	40,8	-3,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 13,6 % ga oshdi. tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 3,0 % ga pasaydi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,2 % ga pasaydi..



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,7 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga kamaygan , uning jami sanoatdagi ulushi 35,9 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-mart oyida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 52,5 % dan 62,2 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,0 % (2020- yil yanvar-mart oylarida 6,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 20,7 % ni shuningdek, Uchtepa tumani 12,2 % ni, Sirg'ali tumani 11,8 % ni, Olmazor 9,5 % ni, Mirobod tumani 8,9 % ni hamda Chilonzor 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (102,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (188,2 %), Mirobod (129,7 %), Sirg'ali tumanlarida (126,2 %) hamda Yangixayot (125,1 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar - mart oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	5 736,4	100,0	120,5
Uchtepa	701,8	12,2	110,9
Bektemir	440,8	7,7	95,4
Yunusobod	233,8	4,1	89,4
Mirzo Ulug'bek	321,5	5,6	121,4
Mirobod	513,1	8,9	129,7
Shayxontohur	173,3	3,1	93,9
Olmazor	546,1	9,5	110,7
Sirg'ali	679,6	11,8	126,2
Yakkasaroy	315,4	5,6	107,6
Yashnobod	1 190,2	20,7	188,2
Yangihayot	153,7	2,7	125,1
Chilonzor	467,1	8,1	97,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 20,3 %, shuningdek, Sirg'ali 16,6 % ni, Olmazor tumani 13,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (158,4 %), Yangixayot (131,8 %), Olmazor (129,5 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-mart oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	1 824,7	100,0	108,4
Uchtepa	148,1	8,1	89,9
Bektemir	371,1	20,3	96,8
Yunusobod	123,0	6,7	106,7
Mirzo Ulug'bek	59,6	3,3	95,4
Mirobod	58,5	3,2	94,1
Shayxontohur	46,6	2,6	72,4
Olmazor	246,6	13,5	129,5
Sirg'ali	302,3	16,6	127,0
Yakkasaroy	107,5	5,9	158,4
Yashnobod	72,7	4,0	105,9
Yangihayot	84,3	4,6	131,8
Chilonzor	204,3	11,2	101,2

Hududlar kesimida noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib 23,9 % ni, shuningdek, Uchtepa 15,5 % ni, Sirg'ali 9,6 % ni, Olmazor 8,4 % ni, Chilonzor 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (265,3 %), Mirobod (136,4 %), Mirzo Ulug'bek (129,8 %), Sirg'ali (125,3 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-mart oylarida)

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	3 567,3	100,0	127,8
Uchtepa	553,7	15,5	118,4
Bektemir	69,4	1,9	89,1
Yunusobod	91,4	2,6	69,3
Mirzo Ulug'bek	261,8	7,4	129,8
Mirobod	454,5	12,7	136,4
Shayxontohur	100,3	2,8	92,2
Olmazor	299,6	8,4	99,1
Sirg'ali	343,2	9,7	125,3
Yakkasaroy	207,9	5,8	92,4
Yashnobod	853,3	23,9	265,3
Yangihayot	69,4	1,9	97,4
Chilonzor	262,9	7,4	95,0


**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	2021- yil yanvar-mart mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	15 978,3	110,1
Uchtepa	1 226,8	91,9
Bektemir	840,6	91,9
Yunusobod	868,2	80,1
Mirzo Ulug'bek	1 081,9	98,5
Mirobod	1 351,5	100,1
Shayxontohur	1 070,8	113,0
Olmazor	1 014,0	110,1
Sirg'ali	1 382,8	109,7
Yakkasaroy	1 038,2	100,3
Yashnobod	4 999,0	116,0
Yangihayot	197,9	104,5
Chilonzor	906,6	111,4



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Yunusobod (2020-yil yanvar-mart oyiga nisbatan 80,1 %), Uchtepa (91,9 %), Bektemir (91,9%) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.


Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da	Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da
---	---



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (188,2 %), Mirobod (129,7 %), Sirg'ali (126,2 %) hamda Yangihayot tumanlarida (125,1 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 31,3 %), Sirg'ali (8,7 %), Mirobod (8,5 %), Uchtepa (7,7 %) hamda Mirzo Ulug'bek (6,8 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (1,2 %) hamda Bektemir (5,3 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021-yil yanvar-mart oyida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4,9 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiheyot tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 86,8 %), Chilonzor tumanida (68,9 %), Olmazor tumanida (65,1 %), Sirg'ali (58,0 %), Yunusobod (56,4 %), Uchtepa (30,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (13,8 %), Mirobod (18,7 %) va Shayxontohur (18,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,7 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,1 %) Olmazor tumaniga, 2,1 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,8 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (11,0 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (9,1 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,4 %) Yashnobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-mart oylarida shaharda 606 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 80 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,2 %) Chilonzor tumanida, 70 tasi (11,6 %) Uchtepa tumanida, 64 tasi (10,6 %) Olmazor tumanida, 58 tasi (9,6 %) Yunusobod tumanida, 58 tasi (9,6 %) Shayxontohur tumanida, hamda 56 tasi (9,2 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2021-yil 1 - aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 190 ta), Chilonzor 2 053 ta), Uchtepa (1 973 ta), Yunusobod (1 844 ta) hamda Shayxontohur (1 522 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 aprel 2021 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 aprel holatiga)



2021-yilning 1-aprel holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (532 ta), Yangihayot (551 ta), Mirobod (981 ta), Yakkasaroy (1 247 ta), Yashnobod (1 396 ta), Mirzo Ulug'bek (1 365 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi
(2021-yil yanvar-mart holatiga ko'ra)

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 268 ta loyiha bo'yicha 1 597,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 22,1 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2021-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 281 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 64,9 foizga oshdi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2020-yil yanvar-mart	2021-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	238	268
Korxonalar soni, birlik	82	105
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm"	593,3	1 597,5
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar"	13,4	22,1
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	45	281

Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16